■Ta'lim

KASBGA YO'NALTIRILGAN INGLIZ TILI – RAQOBATBARDOSH MUTAXASSIS ASOSI

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini bilish oddiy bilim emas, balki professional zaruratga aylanib bormoqda. Ayniqsa, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes – ESP) zamonaviy mutaxassis tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili umumiy kundalik muloqotdan farq qilib, muayyan soha ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'ladi. Masalan, shifokorlar uchun tibbiy terminologiya, muhandislar uchun texnik hujjatlar, iqtisodchilar uchun moliyaviy hisobotlar va IT mutaxassislari uchun dasturlashga oid inglizcha manbalar asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ko'plab ish beruvchilar nafaqat kasbiy bilim, balki ingliz tilida erkin va to'g'ri muloqot qila olishni ham talab qilmoqda. Xalqaro kompaniyalar, qo'shma korxonalar va xorijiy loyihalarda ishtirok etish uchun kasbiy ingliz tili muhim ustunlik beradi. Bu esa yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshiradi. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratiladi. Taqdimot qilish, ishbilarmonlik yozishmalari olib borish, texnik hujjatlarni tushunish va tahlil qilish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Natijada o'rganuvchi tilni real ish jarayonida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning aksariyati ingliz tilida olib boriladi. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini bilgan mutaxassis xorijiy ilmiy maqolalar, grant dasturlari va innovatsion loyihalardan samarali foydalana oladi. Bu esa ilm-fan va texnologiyalar rivojiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili – bu shunchaki til emas, balki professional muvaffaqiyatga eltuvchi muhim vositadir. Uni o'rganish orqali mutaxassis o'z sohasida yetuk, zamon talablariga javob beradigan va xalqaro miqyosda faol bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zarifa SHAMIRZAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Lingvistika va ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi.

Сайёҳлик

ТУРИЗМ СОҲАСИ САМАРАСИ БЕШ ЙИЛДА ИККИ БАРОБАР ОРТАДИ

Бугун туризм соҳаси жаҳон иқтисодиётининг энг тез ривожланаётган ва истиқболли тармоқларидан бири. Биринчидан, бу хорижга маҳсулот экспорт қилмай, валюта олиб кириш имконияти демак. Иккинчидан, туризм кам маблағ билан кўп иш ўрни яратадиган, аҳоли даромади ва ҳудудлар қиёфасини яхшилайдиган соҳа.

Ўтган саккиз йилда соҳага 6,5 миллиард доллар сармоя киритилиб, 130 мингта меҳмон ўрни очилган. Аслида, юртимиз тарихи, маданиятига асосланиб, бу кўрсаткични 2-3 карра кўпайтириш мумкин.

Лутфулла СУВОНОВ,
"Янги Ўзбекистон" мухбири